

**MULKDORLIK VA TADBIRKORLIKNING ZAMONAVIY
TAMOYILLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING MA'NAVIY-
MA'RIFIY OMILLARI**

Hamrayev Siroj Abriyevich

Samarqand Iqtisodiyot va servis institute, dotsenti

E-mail: sirojbek84@mail.ru

Tel.99 311 05 55

***Anotatsiya:** Ushbu maqolada mulkdorlik va tadbirkorlikning zamonaviy tamoyillarini takomillashtirishning ma'naviy-ma'rifiy omillari haqida fikr yuritiladi. Ma'lumki, inson o'z ma'naviyatini shaxs sifatida o'zini anglagani va kamolotga yetgan yillaridan boshlab umrining oxirigacha shakllantiradi va rivojlantirib boradi. Uning ma'naviy qiyofasi butun ongli faoliyati davomida muttasil takomillashib boradi.*

***Tayanch so'zlar:** mulkdorlik, tadbirkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm, taraqqiyot, strategiya, ishbilarmonlik, inson, sarmoya, iste'mol, fan-texnika, izchil iqtisodiy, huquqiy va siyosiy islohotlar.*

Ma'lumki, inson o'z ma'naviyatini shaxs sifatida o'zini anglagani va kamolotga yetgan yillaridan boshlab umrining oxirigacha shakllantiradi va rivojlantirib boradi. Uning ma'naviy qiyofasi butun ongli faoliyati davomida muttasil takomillashib boradi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda mulkdorlik va tadbirkorlikning zamonaviy tamoyillarini o'zlashtirgan yangi ishbilarmonlar avlodini shakllantirishda ushbu jihatga alohida ahamiyat qaratilayotgani aslo bejiz emas. Hayotimizning barcha jabhalari kabi, iqtisodiy sohada, ayniqsa tadbirkorlik va mulkdorlikni rivojlantirish borasida ham muhim natijalar qo'lga kiritilmoqda.

Jahonning ilg'or mamlakatlarida sinovdan o'tgan yangi samarador vositalar va usullarni samarali qo'llash orqali "Inson manfaatlari - barcha narsadan ustun" degan ezgu g'oya, "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va

ruhi – ma'naviyatdir" degan tamoyil hayotga jadallik bilan joriy etilmoqda. Zamonaviy tadbirkorlarga xos ma'naviy yetuklikning shartlaridan biri insoniy sifatlarning uyg'unligi masalasidir. Kishining ichki va tashqi dunyosi, sog'lom fikr va oqilona so'zi bilan amaliy faoliyati, tili bilan dili birday bo'lishi yetuklik mezonlari va shart-sharoitidir. Bunday uyg'unlikka erishgan odam baxtiyor bo'ladi. Har bir shaxsni ilk yoshligidan boshlab mantiqiy fikrlashga o'rgatish hayot talabidir.

Shu bilan birga, har bir tadbirkor inson o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish jarayonida nafaqat moddiy ne'matlar, balki ma'naviy boyliklar, tashkiliy-boshqaruv tuzilmalari, jamiyatda mavjud turli munosabatlarni, ya'ni butun ijtimoiy-ma'naviy hayotni ham yaratadi. Bu jarayonda tadbirkorlik sohasida ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan ma'naviy mezonlar va qadriyatlarning ko'pchiligiga yangi mazmun bag'ishlab, ba'zilarini qayta tiklashdan ko'zlangan maqsad o'tmishga sig'inish emas, balki ma'naviyatning milliy-etnik asoslariga suyanib, undan foydalanib olg'a siljish, taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqishdan iboratdir.

Bugungi tadbirkorlarimiz ma'naviyatiga umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'zlashtirish, xalqning ana'naviy ma'naviy tajribasi va an'analarini bilib olish hamda tadrijiy davom ettirish, rivojlantirish nuqtai-nazaridan yondashish zarurligi davr talabiga aylandi. Globallashuv jarayonida mafkuraviy kurash o'zining yuqori nuqtasiga chiqayotgan bugungi kunda, turli ma'naviy ta'sirlar avvalo, tadbirkorlarning ongini zaharlash va ularni o'z manfaatlari yo'lida foydalanish oqibatlari bizga shuni yana bir bor isbotlamoqdaki, avvalo mana shu qatlam orasida g'oyaviy tarbiya va targ'botini keng ko'lamda yoyish, uning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan turli ma'rifiy tadbirlar, ta'lim tizimi va xilma-xil targ'ibot texnologiyalaridan foydalanish kutilgan natijalarni berishi mumkin.

Bularning barchasi, bugungi kunda yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsadni izchil amalga oshirishga qaratilgan Yangi O'zbekiston - 30 strategiyasi doirasida tadbirkorlar ma'naviy qiyofasini yuksaltirish uchun tizimli faoliyat olib borish hozirgi davr talabi va taqozosi, uni takomillashtirish omillari va tamoyillarini belgilaydigan faoliyat mezoniga aylanayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda Prezidentimizning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2025 yil 22 dekabrda bo'lib o'tgan majlisidagi ma'ruzasi asosida jamiyatimiz ma'naviy rivojini yanada yuksak darajaga ko'tarishga xizmat qiladigan tizimli faoliyat dasturlari ishlab chiqilib, ushbu yo'nalishda belgilab olingan rejalar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda, mazkur sohaga doir butun jamiyat miqyosidagi dolzarb vazifalar qatorida keyingi yillarda mamlakat hayotida muhim ahamiyat kasb etayotgan tadbirkorlar va mulkdorlar qatlamining hozirgi zamonga mos ma'naviy qiyofasini shakllantirish bu boradagi faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Avvalo, ilmiy-nazariy jihatdan Prezidentimiz ma'ruzasi mamlakat taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichidagi keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va shu jumladan, tadbirkorlar va mulkdorlar qatlamining milliy qadriyatlar asosida butun jamiyat manfaatlariga mos yangi ma'naviy qiyofasini shakllantirish yo'nalishidagi ishlarning muhim dasturulamali ekanligi shubhasiz.

Ma'ruzada bugungi kundagi ma'naviy taraqqiyotimiz strategiyasining keng ko'lamli amaliyoti, uning o'ziga xos xususiyatlari va dolzarb masalalari har tomonlama chuqur tahlil qilingani hamda shu sohadagi faoliyatning eng ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgani ushbu qatlam saflari kengayib borishining ma'naviy omillarini yanada kuchaytirish uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bugungi kundagi amaliyot tadbirkorlar qatlamining butun jamiyat manfaatlariga mos yangi ma'naviy qiyofasi shakllanishi va takomillashuvi nuqtai-nazaridan Prezident ma'ruzasining mazmun-mohiyatini chuqur o'rganish va uning ahamiyatini anglash lozim. Bu jihatdan, ma'ruzaning "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak" deb nomlangani aslo bejiz emas, albatta. Bu mazkur hujjatning jamiyatimizda yangi ma'naviy makonni yaratish, g'oyaviy barkamol va raqobatbardosh avlodni voyaga yetkazish strategiyasining nafaqat joriy yil, balki kelgusi yillardagi faoliyat uchun ham tayanch hujjatlardan biri sifatidagi ahamiyatini belgilab beradi.

Shu bilan birga, biror bir qatlam yoki soha vakillariga xos ma'naviyat tamoyillari to'la-to'kis shakllanishi va ularning yetuk, takomillashgan holatga kelishi uchun ko'p yillar, ba'zida bir necha o'n yil kerak bo'lishi ham ma'lum. O'tgan asrda qariyb 70 yil davomida inkor qilib kelingan va istiqloq yillarida qayta bo'y ko'rsata boshlagan tadbirkorlik harakati va uning vakillariga xos ma'naviy mezonlar va tamoyillar shakllanishi ham ana shunday tadrijiy jarayondir.

Ushbu jarayonning samarali amalga oshishi uchun jamiyatning siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-ma'naviy hayotida tub o'zgarishlar ro'y berishi va mazkur yangilanishlar tadbirkorlar qalbi va ongiga singishi hamda mustahkamlanishi darkor. O'z navbatida bu, taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tgan O'zbekiston jamiyatida "tadbirkor ma'naviyati" tushunchasining vujudga kelishi va mustahkamlanishi jarayonini belgilaydigan tayanch omillar tizimi yangilanishini taqazo qiladi.

Har bir inson, jumladan tadbirkor kishining ma'naviy dunyosi – o'ta nozik hilqat va undagi biror bir kemtik holatni tuzatish va o'nglash uchun yillar davomida muntazam sabr-toqat bilan tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, amaliy chora-tadbirlar, hayotiy o'zgarishlarni muvofiqlashtirish taqozo qilinadi. Bunday muvofiqlashtirish barcha aholi, jamiyat, mamlakat, davlat ma'naviy hayoti va hozirgi davr xususiyati, xususan tadbirkorlar ma'naviyti darajasi haqidagi faktlarni yig'ish, tahlil qilish, to'plangan bilimlarni ma'lum bir tizimga solish va nazariy jihatdan umumlashtirishga xizmat qiladi.

O'z navbatida bu, mamlakatimiz mulkdorlari va tadbirkorlarida quyidagi qadriyatlarga ehtirom va ularga amal qilish hamda sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashi lozim:

- tug'ilgan makon va ona yurtiga ehtirom;
- avlodlar xotirasiga sadoqat;
- kattalarga hurmat, kichiklarga izzat;
- mehmondo'stlik;
- bolajonlik;
- ma'naviyat–axloq–odob–ma'rifat;

- muomalada mulozamat, hayo, andishalilik;
- og'ir kunlarda vazminlik, sabr-toqat va hokazo.

Bularning barchasi mulkdorlar va tadbirkorlarning ma'naviy qiyofasi hamda ishbilarmonlar va mulkdorlarning maks'uliyat tuyg'usini shakllantirish, bu sohaga kirib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash masalasi tor va kichkina doiradagi mavzu emas, balki butun jamiyat va davlat hayotiga, xalq taqdiriga taalluqli bo'lgan umumiy ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi.

Bunday tarbiya jarayonida Vatanimiz va xalqimizga sodiq, ma'naviy barkamol va sog'lom tafakkurli zamonaviy mulkdorlar va tadbirkorlarning yangi avlodini shakllantirish, bu boradagi ishlarni tizimli tashkil qilish zarurati mavjudligi shubhasiz. Ushbu sohada tadbirkorlar, ishbilarmonlar va mulkdorlarning savodxonligini oshirish yo'nalishida qator ishlarni tizimli yo'lga qo'yish zarurati tobora ortib bormoqda. Bunda ayniqsa, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, tadbirkorlarning ehtiyojlari aniqlash va bu borada muntazam chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Tadbirlar, shuningdek, bepul yoki chegirmali maxsus o'quv dasturlarini tashkil etish va ushbu treninglarga mahalliy va xalqaro maslahatchilarni jalb qilishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, mulkdorlar va tadbirkorlar banklar bilan hamkorlik qiladi, kichik va o'rta korxonalarga moliyaviy bo'lmagan xizmatlarni (masalan, marketing, menejment, sotish va h.k.) ko'rsatishni rag'batlantiradi.

Tadbirlarni amalga oshirish jarayonida mavjud o'quv va o'qitish imkoniyatlaridan foydalaniladi, yangi o'quv markazlarini tashkil etish rag'batlantiriladi, mazkur markazlarda o'quv va mashg'ulotlar samaradorligini oshirish uchun eng ilg'or metodikalardan foydalaniladi. Ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida mazkur yo'nalishda faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilotlar tajribasi va texnik ko'magidan foydalaniladi.

Ushbu ustuvor yo'nalish doirasida O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar, ishbilarmonlar va mulkdorlarning ma'naviy-ma'rifiy faoliyati yanada oson moliyalashtiriladi va yakuniy natijada sohaning rivojlanish imkoniyatlari ortadi. Tadbirkorlik va mulkdorlik subyektlarining savodxonligini oshirish

natijasida ularning raqobatbardoshligi oshadi, bu esa o'z navbatida resurslar va imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – B. 56.
2. «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni. - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son; 25.10.2023 y., 03/23/871/0797-son); - <https://lex.uz>.
3. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida O'RQ-328-son O'zbekiston respublikasi qonuni. -<https://lex.uz>.
4. “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // <https://lex.uz/docs/1101278>.
5. “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. <https://lex.uz/docs/116757>.
6. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2010.
7. «Har bir oila-tadbirkor» dasturini amalga oshirish to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 iyundagi PQ-3777 sonli qarori. <https://lex.uz/docs/3772869>.